



BUGUNGI O'ZBEK ADABIYOTIDA JALOLIDDIN MANGUBERDI SIYMOSI

(Erkin Samandarning “Sulton Jaloliddin Manguberdi” tarixiy romani misolida)

Farxod Kenjayev Ikram o‘g‘li

Alfraganus University nodavlat olyi ta’lim tashkiloti

“Sharq filologiyasi” kafedrasi o‘qituvchisi

E-mail: 777farhodkenja777@gmail.com

ORCID: 0009-0004-4332-8951

Annotatsiya: Maqolada Erkin Samandarning tarixiy mavzudagi “Sulton Jaloliddin Manguberdi” romani tahlilga tortilgan. Tahlil davomida asardagi to‘qima obrazlarning tarixiy faktga mutanosibligi, ijodkorning badiiy to‘qima mahorati, shuningdek Jaloliddin Manguberdi ruboii bitganligi haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Kubroviya tariqatidan, Asarda ruboii, Ot xalq og‘zaki ijodida, Adabiyot san’atida tarixiy mavzular.

Sulton Jaloliddin ... Bug‘doyrang va o‘rta bo‘yli.
Butun qiyofasiga ko‘ra tom bir turkiy.
Turkiycha so‘zlashar. Forsiychani ham bilar.
U sokin tabiatli bo‘lib, biron-bir kishini so‘kib haqoratlamasdi.
Jiddiy va viqorli. Kulmas, kulumsirar. Oz gapirar.

Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy

Qarg‘ish tufayli Xorazm davlatining qulaganligini o‘zbek xalq og‘zaki ijodida uchratish mumkin, ba’zida tarixiy fakt darajasida baho beradiganlar ham kuzatiladi. Yozuvchi Erkin Samandar mana shu rivoyatni yanada badiylashtirib, romanning birinchi mavzusiga ko‘targan. Asarning birinchi qismi shuning uchun ham “Qarg‘ish” deb nomlanib, butun voqealar mana shu syujet asosida o‘sib boradi. Erkin Samandar tomonidan Manguberdi haqidagi asarlarning boshqa shu mavzudagi asarlardan o‘ziga xos bo‘lgan yutuqlaridan biri Jaloliddin Manguberdining ruboii yozganligini va ruboiyidan namuna keltirib, uning tarixiy manbasini ko‘rsatganligidir.

**Dar razm chu ohanim va dar bazm chu mum,
Bar do‘st muborakimu bar dushman shum,
Az hazrati mo barand insof ba Shom,
Va-zi haybati mo barand zunnor ba Rum!**

Ya’niki:



Kurashda temirdek qattiq, bazmda mumdek muloyimmiz. Do'stga sharofatlimiz, dushmanga bermasmiz omonlik, Ulug'vorligimizdin nabiylar yurti Shomga diyonat namunasini elturlar.[Samandarov. E 1:23]

Asarda ruboiy Yigit Malik ismli to'qima obraz tomonidan keltiriladi. Iqtiboslikka manba sifatida esa yozuvchi Eronlik alloma Rizoqulixon Hidoyatning (1800-1871) "Majma al-fusaho" tazkirasidan olingan deya tarixiy fakt keltiriladiki, bu Jaloliddin Manguberdi obraziga yanada teranroq ilmiy ishlar olib borilishi lozimliligini bildiradi. Izlanishlarimiz davomida bu asarning asl nusxasi topilib, aynan birinchi manbadan iqtibos olishga harakat qilindi va natijada Tehron nusxasi 32-tartib raqamidan quyidagi ma'lumotlar topildi.

جلال الدین خوارزمشاه

فزند سلطان قطب الدین محمد خوارزمشاه بوده است که در خروج مغول و تاتار با سپاه چنگیزخان تاتار قهار مکرر محاربات بزرگ کرده و در اغلب حروب غالب آمده تا آخرالامر در حرب رود سند مقهور گردیده خود را از فراز ساحل رود که ده گز فاصله داشته با اسب به رو [د] درانداخته، بیرون رفت و از آنجا به هند و سند رفته کارهای بزرگ کرده بعد [از] تسخیر بسیاری از ولایات [از] راه کرمان به ایران آمده با سرداران و خلیفه بغداد محاربه کرده غلبه یافته به آذربایجان آمده با حکام ارزنهالر روم محاربتهای کرد جمعی به قتل آورده پادشاهان شام به معادات او برخاسته شش هزار کس از قشون آنها که به مدد حکام اخلاقط می آمدند اند به قتل آورده آخر کار - چنانکه در تواریخ مضبوط است - مفقود و معدوم شد. این ریاضی شاهانه از اوست:

رباعی

در رزم چو آهنیم و در بزم چو موم بر دوست مبارکیم و بر دشمن شوم
از حضرت ما برند انصاف به شام وز هیبت ما برند زنار به روم

[Hidoyat.R 2:32]

Ko'rinaridiki, manbada Sultonning nafaqat ruboiy yozgani balki, bugungi kunimizda muhokamaga sabab bo'layotgan mo'g'ullar va tatarlarni birlashgan xalq sifatida keltirigan. Bu yana bir bora mo'g'ullarning turkiy xalqlardan ekanligiga dalil bo'lishi mumkin.

O'zbek adabiyotida yuqoridagi ruboiyning quyidagi tarjima varianti ko'p uchraydi:

**Jangda xuddi temirdek, bazmda misli mummiz,
Do'stga marhamatli g'animga esa shummiz,
Ulug'vorligimizdin shomga isnsof eltarlar,
Haybatimiz dastidin rumga zunnor eltarlar!**



Ammo bir jihat sharq xalqlarida keng tarqalgan ruboiy (arab. – to‘rtlik) janri o‘z qofiyalanish tartibiga ega. Ruboilyarning birinchi, ikkinchi, to‘rtinchi misralari o‘zaro (a-a-b-a shaklida) qofiyalanadi. Ikkinci holatda misralarning to‘rtala misrasi ham (a-a-a-a shaklida) qofiyalandi. Lekin biz tahlilga tortgan so‘nggi (tarjima nazarda tutilmoxda) ruboiy janr qonun-qoidalariga mos emas. Ya’ni misralar a-a, b-b shaklida qofiyalangan holda asl nusxada bunday juz’iy kamchilik kuzatilmaydi.

Agar ruboiy qofiyalanish tartibiga javob bermasa u to‘rtlik sifatida baholanadi. Demak, biz ruboyni tarjima qilish jarayonida to‘rtlik darajasiga tushirib yubormasligimiz lozim.

Jaloliddin Manguberdi sulton farzandi va valiahd o‘laroq Najmuddin Kubroning suykli shogirdi ham ediki, Kubroviya tariqatidan ta’lim-tarbiya olganligi tarixdan ma’lum. Demak, Jaloliddin Manguberdi ruboiy yozganligi haqiqatga juda yaqin. Ruboyning nazm qoidalariga mukammal javob berishi esa Manguberdining bundan ham boshqa ijodiy namunalari mavjudligidan dalolat beradi. Axir tariximiz ne-ne shoh va shoirlarni bizga taqdim qilgan. Masalan, biz ko‘proq shoh va shoir deb ta’kidlaydigan Temuriylar avlodi, Boburiylar imperiyasining asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur, (Boburning so‘z mulkining sultoni Alisher Navoiyga ixlosi baland edi va uni o‘z ustozи deya bilgan) Shayboniylar sulolasining asoschisi Muhammad Shayboniyxon,(Shoybonixon esa Buxoroda o‘z davrining allomalaridan ta’lim olgan) Xiva xoni Feruz. Muhammad Rahimxon II (Ogahiy Feruzga ustozlik qilgan, unga she’riyat sirlarini o‘rgatgan. Demakki, nafaqat tarixiy fakt balki bu turkiy hukmdorlar an’analaridan biridir. Agar bu borada ilmiy-nazariy ishlar amaliy jihatdan ko‘rib borilsa, Jaloliddin Manguberdi obrazi shoh va shoirlikka yaqinlashish ehtimoli katta. Jaloliddin Manguberdi turkiy tilda so‘zlashgan va forsiy tilda baytlar bitgan o‘z davrining bilimdoni hamdir. Bir ruboyning Sulton Jaloliddin qalamiga borib taqalishi bilan Manguberdi shaxsini shoir sifatida ulug‘lash (uning ulug‘ligi o‘z davri va o‘zga davrlar uchun ham yetarli) yoki tarixiy shaxsni ideallashtirish maqsadidan yiroq bo‘lgan holda, Sulton Jaloliddin ruboiy yozgani Xorazmlik emas, Eronlik alloma tomonidan keltirilishi ilmiy-faktologik izlanishni talab qiladi. Ya’ni, agar Xorazm tarixchilari yozganida “bu yozuvchi o‘z ajdodini ulug‘labdi” deyishga asos bo‘lolardi, ammo Eronlik olimning bu faktni yozib qoldirishi (eng qizig‘i o‘zini Chingiziylar avlodi deb bilmish Xiva xonligi davrida) yana bir bora tadabbur qilinishni talab qiladi.



Asarda ko‘tarilgan yana bir epizodlardan biri bu Qorabayir nomli Jaloliddining ot obrazidir. Ot xalq og‘zaki ijodida, ayniqsa dostonlarda yarim bahodirlik deya ulug‘lanadi va insonning eng yaqin do‘sti hamdir. Ot nafaqat “Alpomish” kabi xalq og‘zaki ijodi namunalari qahramoni, balki tarixiy shaxs hisoblanmish Manguberdi hayotiy faoliyatida, hatto Xorazm qo‘shiniga(1221-yil Jaloliddin mo‘g‘ullarning mohir sarkardasi Shixi Qutuxuning 45 minglik qo‘shini tor-mor keltiriladi va yengilmas deya nom olgan Chingizzon qo‘shini haqidagi afsonalar yo‘qqa chiqadi, lekin bir arabi oti uchun tortishib qolgan Jaloliddinning sarkardalari bo‘linib ketadi, bu bo‘linish . . . Sulton qo‘shinining Sind daryosidagi mag‘lubiyatiga asos bo‘ladi), hududiy nomlanishiga (tarixchi, tilshunos va toponimist olimlar (Ya. G‘ulomov, S. P. Tolstov, F. Abdullayev, O. Madrahimov va boshqalar)ning ta’kidlashicha, „Hazorasp“ qad. xorazmiy tilida ming ot (hazor – ming, asp – ot) yoki ming otliq diyori ma’nosini bildiradi)[3] ham ta’sir ko‘rsatganligini kuzatish mumkin. Sind daryosidagi Sulton va ot qahramonligi esa so‘nggi xorazmshoh haqidagi deyarli barcha asarlarda alohida epizod sifatida yuqori cho‘qqida tasvirlanadi.

Tahlilni asarga qaratadigan bo‘lsak, Qarshibek Abdul Mahakning qizi Qambarnisoni sevadi, bu epizod orqali yozuvchi asarga romantik ruhiyatni singdirgan va asarning o‘quvchanligini oshirgan. Bunga o‘xhash romantik tasvir endi o‘n beshga kirgan Xonsulton va Kubroviya tariqatining yulduzi Majdiddin Bag‘dodiy voqeasida ham keltiriladi.

Qarshibek – qurolosoz, qurolosoz Abdul Mahakning eng yaqin shogirdi. Ammo to‘qima obraz hisoblangan Qarshibek nomi noto‘g‘ri tanlangan, chunki, qarshi nomining kelib chiqishi mo‘g‘ulcha bo‘lib shahar degan ma’noni anglatadi. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida qarshi so‘zining mo‘g‘ul tilidan olinganligi va shahar, saroy degan ma’noni anglatishini yozib qoldirgan. Zahiriddin Muhammad Bobur hozirgi Qashqadaryo viloyatining poytaxti Qarshi shahrini mo‘g‘ul xonlaridan hisoblanmish Kebekxon qurdirganligini ham ta’kidlagan. Eng qizig‘i 1220-yillarda hali mo‘g‘ullar Xorazmni bosib olmagan va bunday nomlar yerlik aholi ismlariga ko‘chib ulgurmaganligi aniq. Bu ism keyinchalik mo‘g‘ullar butun Xorazm davlatini zabt etib, o‘troqlasha boshlagandan keyin Qarshibek ya’ni yarmi mo‘g‘ulcha yarmi turkcha nomlarga qo‘shilib, qarshi-shahar, saroy// bek-beklar avlodidan, hukmdor ma’nolarini biriktiradi va shahar begi degan ma’noni anglatadi. Muallif bu yerda mana shu xususiyatlarini inobatga olmagan.



Qarshi shahri nomiga to‘xtalsak bu nom mazkur hududga XIV asrda berilgan undan oldin Naxshab, Navkata, Nasaf kabi nomlar bilan atalgan, demak qarshi nomi berilgan davrning o‘ziyoq uning mo‘g‘ullar bilan bog‘liqligini ko‘ramiz.

Nasriy-memuar va tarixiy-ilmiy asar hisoblan mish “Boburnoma” da Z.Muhammad Bobur qarshi shahri haqida shunday ma’lumot keltiradi: “Yana qarshi viloyatidurkim, Nasaf va Naxshab ham derlar, Qarshi mo‘g‘ilcha ottur, go‘rxonani mo‘g‘il tili bila qarshi derlar. G‘olibo bu ot Chingizzon tasallutidin so‘ng bo‘lg‘ondir. Kam obroq yerdur, bahori xub bo‘lur, ekini va qovuni yaxshi bo‘lur”. Ko‘rinadiki qarshi nomi Chingizzon bosqinidan keyin hudud nomiga qo‘yilgan.

To‘g‘ri, har bir asar yozuvchi o‘z ruhiy kechimmalari va badiiy tafakkuri mahsuli hisoblanadi. Ammo, o‘quvchi va tinglovchi uni o‘zining nazariyasiga solishga haqli. Asarni o‘qish esa o‘quvchining adabiy qarashlariga mos ijodiy jarayonga aylanib boradi. “Negaki, badiiyat hodisasi asarning o‘z-o‘zicha namoyon bo‘luvchi obyektiv xossasi emas, balki o‘quvchi ongi-yu qalbida kechuvchi ma’naviy-ruhiy jarayondir. Shu bois ham u o‘qish jarayonidagina va hamisha “yozuvchi-asr-o‘quvchi” birligida namoyon bo‘ladi”.[Quranov.D 4:119]

Adabiyot san’atida tarixiy mavzulardagi romonlarga urg‘u berilishidan maqsad moziyning xulosa chiqariladigan zomonlaridan, ya’ni kechagi kun orqali bugunning, keljakning qahramonlarini yuksaltirmoqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E. Samandar. Sulton Jaloliddin. –T.: G‘ovur G‘ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2007. – B. 23.
2. Eronlik alloma Rizoqulixon Hidoyatning (1800-1871) “Majma al-fusaho” tazkirasi, “She‘r bitgan hukmdorlar” 32-t.r.
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Hazorasp>
4. D. Quranov. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Navoiy universiteti, 2018. – B. 119.